



O'QISH DASTURI TAHLILI

Atamurotova Qunduzoy Abdug‘aniyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

atamurotovaqunduzoy@gmail.com

Esanova Marjona Absalom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Tel:+99975358003

@mail : *esanovamarjona6@gmail.com*

Annatatsiya. Ushbu maqolada O‘qish dasturi tahlili ochiq bayon qilingan hisoblanib o‘qish dasturining bilgilangan guruhlarida bolaning qanday qilib o‘qish darsligiga qiziqishini yo‘llarini ochib bergan. Bollarni ifodali , umumlashtirib o‘qidhlari uchun yo‘llari namoyon qilingan.

Kalit so‘z. O‘qish dasturi, ifodali o‘qish turlari, bolalarni o‘qish darsligiga qiziqish yo‘llari, o‘qtish didaktikasi, to‘g‘ri o‘qish, ongli o‘qish, tez va ravon o‘qish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan ona tili o‘qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o‘qish va nutq o‘stirish bo‘limida o’tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuniga; o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, ma’lum darajadagi tezlik bilan ifodali o‘qishga o‘rgatish; bolaning ona — Vatan, uning tabiatni kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g‘oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O‘qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy — tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. O‘qish darslar davomida o‘quvchilar so‘zdagi harflarni bir-biriga bog‘lab yozish, so‘z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o‘rgatiladi.



O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchi-larni ifodali o'qishga o'rgatish;

2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.

2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'ginlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapiргандай, о'ртача тезлик сур'атига амал qилинib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan yashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r — ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin

Yangi dastur va metodik qo'llanmalarda tavsiya qilinganidek, har bir o'qish darsida o'qilgan asar haqidagi o'quvchilar tasavvuri va bilimini umumlashtirish, malakalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, shuning uchun umumlashtiruvchi darsning qurilishi umumlashtirishning maqsadi va xarakteriga qarab belgilanadi. O'qishdan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini sistemaga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Umumlashtiruvchi dars, odatda, o'qish dasturidagi biror muhim mavzu yuzasidan o'tkaziladi. Umumlashtiruvchi dars dasturning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin. Umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o'quvchilar egallagan bilimlarining sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o'quvchi hayotidagi ahamiyatini tushunadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalar bilimini boyitadigan qo'shimcha materiallar berishi ham mumkin. Umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o'qilganlarning mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarini tartibga solishga yordam berishi lozim. SHunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qilganlargina emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idrok



etilgan tabiatdagi fan va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi. Maktab hayoti, oila va tabiatshunoslikka oid mavzuga bag'ishlangan umumlashtiruvchi darslarning vazifasi kitob materialini o'quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan bilimlari bilan bog'lashdir. Umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, o'qilganlar, ko'rilmagan-kechirilganlar yuzasidan suhbat, illyustrativ materiallar (rasmlar, misollar)ni ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qishi, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og'zaki hikoya qilishi kabilardan fodalaniladi. Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning aniq maqsadidan kelib chiqib ta'minlanadi. Umumlashtiruvchi darslarga, asosan, quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi. O'quvchilar dasturdagi muayyan mavzu ustida ishlab, o'qiganlari, ko'rgan, eshitgani, kuzatganlari haqida o'z fikr-mulohazalarini dalil va erkin aytish imkoniyatlari ega bo'lsinlar. Masalan, ma'lum bir mavzuni yakunlab o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o'qigan hikoya va maqolalardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, biror hikoya yoki maqoladagi qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida o'z fikrlarini aytadilar, zarur bo'lsa, o'qilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ekskursiya o'tkazilgan bo'lsa, ular ekskursiyadan ko'rganlaridan nimalar qiziqarli bo'lganini, qaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o'qituvchi yordam beradi. Bular o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni faol fikrlashga o'rgatadi, o'stiruvchi ta'limning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O'qish kitoblarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishiga yaqin, ularning yosh xususiyatiga mos, shuning uchun ular yuzasidan bolalar to'g'ri yakun va umumiyl xulosa chiqara oladilar. Mustaqil xulosa chiqarish tarbiyalovchi ta'limda muhim ahamiyatga ega. Umumlashtiruvchi darsning muvaffaqiyati unga o'qituvchining qanday tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. Bunday darsda juda ko'p material yuzasidan umumiyl xulosa chiqarishni rejallashtirib bo'lmaydi; bu darsda ko'p material yuklash o'quvchilar diqqatini chalg'itadi; idrok etish qobiliyatlarini pasaytiradi va faol fikrlashlariga xalal beradi. O'qituvchi umumlashtiruvchi darsda o'quvchilardan nimalarni so'rashini, biror narsaga oid yana nimalarni umumlashtirishini belgilab oladi; darsning maqsadi haqida o'ylab, bolalar tafakkuri va faoliyatini faollashtirishga ta'sir etadigan ish shakllaridan foydalanishni rejallashtiradi. Umumlashtiruvchi darsni dasturdagi har bir mavzu o'rganilgandan so'ng o'tkazish shart emas. Uni faqat muhim va katta bo'lim materiallari



o'rganilgandan keyin o'tkazish kifoya. Umumlashtiruvchi darslarda ko'rgazma qo'llanmalar, savol va topshiriqlar, ekskursiya, kuzatish, uchrashuv va suhbat materiallaridan mavzularni o'rganish davridagidek foydalanish tavsiya etilmaydi. Umumlashtiruvchi dars oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi kundalik mashg'ulotlarda foydalanilgan juda ko'p materiallardan har bir mavzu uchun muhim va xarakterilarini tanlashi, o'quvchilar mustaqil xulosa chiqara olishlariga va o'z fikr-mulohazalarini bayon etishlariga imkon yaratib berishlari zarur. Buning uchun o'quvchilar o'zlarining ekskursiya va kuzatish vaqtida yozgan xotiralarini (agar bo'lsa) o'qib chiqishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini, kitobdag'i materialarni ko'zdan kechirib, qiziqarli o'rinalarini belgilashlari, biror asardan ayrim parchani yod olishlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim.

Xulosa. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha fan darslarida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova va b. "Ona tili o'qitish metodikasi" – Toshkent. 2009
2. U. Nishonova "O'zbek xalq ertaklari". "Sangzor" nashriyoti – 2013.
3. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. 1- sinf "O'qish kitobi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019.
4. T. G'afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova; 2-sinf "O'qish kitobi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2018.
5. M. Umarova, X. Xamroqulova, R. Tojiboyeva; 3-sinf "O'qish kitobi". "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019.
6. S. Matchonov, X. G'ulomova, A. Shojalilov va b. 4-sinf "O'qish kitobi". Toshkent, "Yangiyo'l servis" 2017.
7. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.
8. Rustamovich T. A. Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 186-190.



9. Rustam o‘g A. T. et al. Milliy o‘quv dasturining hayotimizdagi o‘rni //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 88-93.

10. Rustam o‘g A. T. et al. XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O ‘QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 94-100.

11. Rustam o‘g A. T. et al. Oliy ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 101-109.